



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2026-yil “10”-fevral

48-son

Toshkent shahri

**Vazirlik markaziy apparati uchun tovarlar, ishlar, xizmatlar xaridi hamda
inventarizatsiyadan o‘tkazish va hisobdan chiqarish bo‘yicha komissiya
tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartiga (19-sonli BHMS) “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish” (ro‘yxat raqami 3548, 2024-yil 12-avgust) asosan

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq:

vazirlik markaziy apparati uchun tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo‘yicha komissiya (keyingi o‘rinlarda-xarid komissiyasi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

vazirlik markaziy apparati balansida bo‘lgan asosiy vositalar va tovar-moddiy qiymatliklarni inventarizatsiyadan o‘tkazish va hisobdan chiqarish bo‘yicha komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xarid komissiyasi (U.Salomov)ga belgilangan tartibda o‘tkaziladigan tanlovning shaffofligini ta’minlash, tanlovda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyati va takliflarini har tomonlama o‘rganib, bajarilayotgan ishlar, xizmatlar va taqdim etilayotgan tovarlarning sifatini ta’minlovchi pudratchi va tovar yetkazib beruvchi tashkilotlarning tanlab olinishini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

3. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (K.Artikov)ga:

Qonunda belgilangan tartibda davlat xaridlarini amalga oshirishni tashkil qilish;

davlat xaridlarini rejalashtirish, davlat xaridlari to‘g‘risidagi axborotni qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda maxsus axborot portaliga joylashtirish;

товар-moddiy qiymatliklarni inventarizatsiya qilish jarayonida amaliy ko‘mak berish, shuningdek, tovar-moddiy qiymatliklarning kirim qilinishi, topshirilishi va hisobdan chiqarilishini to‘g‘ri rasmiylashtirishda belgilangan qoidalarga rioya etilishi hamda vazirlik balansidan o‘rnatilgan tartibda hisobdan chiqarilishini ta‘minlasin.

4. Ishlar boshqarmasi (Sh.Isamuxametov)ga:
davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillari to‘g‘risidagi axborotning ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash;

tanlovda g‘olib deb topilgan ishtirokchilar bilan shartnomalar tuzish, shuningdek ularning ijro etilishini ta‘minlash;

vazirlik faoliyati uchun xarid qilingan va foydalanishda bo‘lgan tovar-moddiy qiymatliklarni belgilangan muddatlarda inventarizatsiyadan o‘tkazish shuningdek, xizmat muddatini o‘tagan tovar-moddiy qiymatliklarni mazkur buyruqning 2-ilovasida qayd etilgan komissiya a‘zolari ishtirokida o‘rnatilgan tartibda hisobdan chiqarish va rasmiylashtirish vazifalari yuklatilsin.

5. Xarid turlari, olinayotgan tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiyatiga qarab Xarid komissiyasi tarkibiga tegishli bo‘linmalardan mutaxassislar jalb qilinishi inobatga olinsin.

6. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 23-fevraldagi 48-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari U.Salomov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



K. Sharipov



Hujjat haqiqiylikini mobil qurilma yordamida QR- kodni skaner qilish orqali tekshirish mumkin



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining
2026-yil "10"- fevral
48-sonli buyrug'iga
1-ilova


**Vazirlik markaziy apparati uchun tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish
bo'yicha komissiya tarkibi**

T/r	F.I.Sh.	Ish joyi va egallab turgan lavozimi
1	Salomov Uktam Rahimovich	Vazir o'rinbosari, <i>komissiya raisi</i>
2	Ibragimov Nozimjon G'ofurovich	Moliyalashtirish va rejalashtirish bo'limi boshlig'i, <i>komissiya raisi o'rinbosari</i>
3	Kasimov Nodir Ulugovich	Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi boshlig'i, <i>komissiya a'zosi</i>
4	Ochilov Nizomiddin Najmiddin o'g'li	Raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish boshqarmasi boshlig'i, <i>komissiya a'zosi</i>
5	Isamuxametov Shukurullo Asatullayevich	Ishlar boshqaruvchisi, <i>komissiya a'zosi</i>
6	Inoyatov Behruzjon Umidjon o'g'li	Yuridik ta'minlash bo'limi bosh yuriskonsulti, <i>komissiya a'zosi</i>
7	Lutfullayev Sherzod Shuxratillayevich	Xo'jalik mudiri, <i>komissiya a'zosi</i>
8	Ibragimov Bekzod Xasanovich	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi bosh mutaxassisi – axborot portaliga tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha ma'lumotlarni joylashtirish uchun mas'ul , (<i>Ovoz berish huquqisiz</i>) kotib

Izohlar:

- 1. Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.*
- 2. Loyihalar doirasida o'tkaziladigan tanlovlarda loyiha mas'ullari ishtiroki ta'minlanadi.*

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining
2026-yil "10"- fevral
48-sonli buyrug'iga
2-ilova



**Vazirlik markaziy apparati balansida bo'lgan asosiy vositalar va tovar
moddiy qiymatliklarni inventarizatsiyadan o'tkazish va hisobdan chiqarish
bo'yicha komissiya tarkibi**

T/r	F.I.Sh.	Ish joyi va egallab turgan lavozimi
1	Salomov Uktam Rahimovich	Vazir o'rinbosari, <i>komissiya raisi</i>
2	Kasimov Nodir Ulugovich	Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi boshlig'i, <i>komissiya raisi o'rinbosari</i>
3	Yoziyev G'olibjon Lutfullayevich	Xalqaro hamkorlik va reytinglar boshqarmasi boshlig'i, <i>komissiya a'zosi</i>
4	Ibragimov Nozimjon G'ofurovich	Moliyalashtirish va rejalashtirish bo'limi boshlig'i, <i>komissiya a'zosi</i>
5	Pirmanov Oxunjon Baxridin o'g'li	Axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish bo'limi boshlig'i, <i>komissiya a'zosi</i>
6	Isamuxametov Shukurullo Asatullayevich	Ishlar boshqaruvchisi, <i>komissiya a'zosi</i>
7	Xakimov G'ulom Quvandiqovich	Moddiy texnik ta'minot bo'limi bosh mutaxassisi, <i>komissiya a'zosi</i>
8	Abdullayev Shoxrux Ochilovich	Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi bosh mutaxassisi, <i>komissiya a'zosi</i>
9	Lutfullayev Sherzod Shuxratillayevich	Xo'jalik mudiri, dalolatnomalar va boshqa tegishli hujjatlarni shakllantirish uchun, <i>komissiya a'zosi</i> <i>mas'ul kotib.</i>

Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.